12-ilova

2023 yilning 3-choragi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida
UMUMIY HISOBOT *

MCHJ «O`zEraeAlternator» QKda tashkil qilingan aloqa kanallari bo‘yicha ishlar amalga oshirilgan. Ya’ni, Ishonch telefoni 2010 yil февраль oyida (73-220-00-16), Rasmiy veb-saytdagi aloqa kanali 2021 yil март (uea.uz) oyida tashkil qilingan.

Bundan tashqari, MCHJ «O`zEraeAlternator» QKda 2023 yilning 3-choragi davomida korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlar mavjud emas.

2023 yilning 3-choragi davomida ishchi hodimlar ishga qabul qilinmagan.

Shuningdek, “UzautoComponents” MCHJning 26.09.2022 yildagi 07-042-sonli “Komplayens nazoratiga oid hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish va tizimlashtirish to‘g‘risida”gi qabul qilingan buyrug‘i asosida “O`zEraeAlternator” MCHJ QKda O‘zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi Korruasiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021 yil 16 iyundagi PF-6247-son “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019 yil 27 maydagi PF-5729-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari talablarini o‘z vaqtida bajarilishini ta`minlash maqsadida korxonada qabul qilingan siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo‘riqnomalar bilan korxonaning barcha xodimlari tanishtirilgan.

Korxonada manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha tegishli ichki idoraviy hujjatga asosan xodimlar tomonidan 2023 yilning 3-choragi davomida to‘ldirilgan manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha deklarasiyalar tahlil qilib chiqildi.

Tahlillar davomida tashkilotda manfaatlar to‘qnashuvi holatlari aniqlanmaganligi ma’lum qilinadi.

Korxonada 2023 yil uchun korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi tasdiqlangan va ijrosi nazoratga olingan.

Bunda,

Mahalliylashtirish-GEM generatori loyixasi bo‘yicha #: TLAV01 sonli 10.10.2022 yilgi Valeo (Fransiya) korxonasi bilan MCHJ “O`zEraeAlternator” QK o‘rtasida TLA lisenziya shartnomalar imzolangan. Shartnoma qiymati 1 500 000 Yevro. Loyixa ishga tushirilishi uchun UzAuto Buyer xodimlari tomonidan ISSR ochilishi kerak.

Kadr yo‘nalishi-2023 yilning 3-choragi davomida ishchi hodimlar ishga qabul qilinmagan.

Korxonada 3-chorak davomida o‘z arizasi asosida ishdan bo‘shatilgan hodimlar 2 nafarni tashkil etadi.

Ta’minot yo‘nalishi-Cobalt avtomobili butlovchi qismlari 11750 komplekt, ta'minot 30 oktyabrgacha. Yo'lda 11128 komplekt maxsulot bor. Yo'ldagi maxsulotlar bilan birga ta'minlanganlin 27 noyabr.

Lacetti avtomobili butlovchi qismlari 7750 komplekt, ta'minot 30 oktyabrgacha. Yo'lda 8260 komplekt maxsulot bor. Yo'ldagi maxsulotlar bilan birga ta'minot 27 noyabrga qadar uzayadi.

Damas avtomobili butlovchi qismlari 18472 komplekt, ta'minot 15 noyabrga qadar. Yo'lda 17409 komplekt maxsulot bor. Yo'ldagi maxsulotlar bilan birga ta'minot 26 dekabrga qadar uzayadi.

Xarid yo'nalishi-hisobot davrida tuzilgan xo'jalik shartnomalari soni jami 155 ta shartnoma tuzilgan bo'lib, jami summasi 1.433,3 mln.so'mni tashkil qiladi.

Korxonada Korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy hujjatlar bilan hodimlar tanishtirildi.

Joriy yilning sentyabr oyida korxonada Navoiy viloyat Adliya boshqarmasi bilan birgalikda o'quv treninglari o'tkazildi. Shuningdek, hodimlarga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va korxona ichki hujjatlarida nazarda tutilgan korrupsiyaga qarshi kurashish talablarini buzgan taqdirda, qonun hujjatlariga muvofiq jazo muqarraligi yuzasidan tushuntirib o'tildi.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi mutaxasisi **M.Matnazarov**